

**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti  
Farg‘ona filiali**

**“MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA  
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”  
MODULI**

**2-MAZU: MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARIDA JISMONIY TARBIYA  
MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH JOYLARIGA QO‘YILADIGAN HAVFSIZLIK  
TALABLARI**

O‘qituvchi: *Mirzakarimov Xudoberdi Yusupovich*

## **2-MAZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH JOYLARIGA QO'YILADIGAN HAVFSIZLIK TALABLARI**

**Reja:**

1. Maktabgacha ta'lif muassasalariga qo'yiladigan gigienik va xavfsizlik talablari
2. Maktabgacha ta'lif muassasalariga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari
3. Favqulotda vaziyatlardan ogohlantirish, ular sodir bo'lganda harakat qilish usul va qoidalari. Evakuatsiya tadbirlari.

## Maktabgacha ta'lif muassasalariga qo'yiladigan loyihalash va qurilish talablari.

- MTT binolarini joylashtirishda asosiy xonalar, guruh xonalari va guruhlar yacheykalari derazalari tomonidan qarama-qarshi turgan eng baland turar-joy va jamoat binosining 2,5 barobar balandligidan kam bo'Imagan sanitar masofalarga riosa qilinishi lozim.
- Aloida binoli yangi qurilayotgan MTT yer uchastkasining maydoni 100 o'ringacha sig'imda bir o'ringa  $40\text{ m}^2$ , 100 o'rindan yuqori sig'imda – bir o'ringa kamida  $35\text{ m}^2$ , binolar tarkibiga kiritib qurilgan MTT lar uchun esa, – bir o'ringa kamida  $29\text{ m}^2$  hisobidan qabul qilish tavsiya etiladi.
- Kiritib yoki biriktirib qurilgan hamda yakka tartibdagi uylarda joylashgan MTT yer uchastkalarining maydonini bir o'ringa  $12\text{ m}^2$  hisobidan qabul qilish tavsiya etiladi.
- Hududi chegaralangan sharoitda aloida binoli yangi qurilayotgan MTT yer uchastkasining maydoni 100 o'ringacha sig'imda bir o'ringa  $25\text{ m}^2$ , 100 o'rindan yuqori sig'imda – bir o'ringa kamida  $20\text{ m}^2$  hisobidan qabul qilishga yo'l qo'yiladi.
- MTT yer uchastkalarida guruhlar, jismoniy tarbiya va xo'jalik maydonchalari joylashtirilishi lozim.



Sig‘imi 25 o‘rindan ortiq bo‘lgan MTT maktab binosi (yoki xodimlar uchun turar-joy xonalari) bilan biriktirib qurilganda va ularning umumiy sig‘imi 50 o‘rindan ziyod bo‘lsa ular o‘zaro yong‘inga qarshi to‘sqliar bilan ajratilishi lozim.

Yasli guruhlari alohida kirish joylariga ega bo‘lishi lozim, katta yoshidagi yasli guruhlar uchun esa ikkita guruhgaga bitta kirish joyi bo‘lishga ruxsat etiladi. Yasli guruhlariga kirish joyida kolyaskalar uchun joy ko‘zda tutilishi lozim.


Maktabgacha yoshdagilar guruharining 3-4 tasiga bitta kirish joyini tashkil qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Ixtisoslashgan MTT uchun ShNQ 2.08.07 talablari inobatga olinishi lozim.


Binoga tashqaridan kirish joyi 1,6 m dan kam bo‘lmagan tamburga ega bo‘lishi kerak.

MTT binolarining evakuatsiya qilish yo‘llaridagi yo‘laklar va galereyalarda yechinish joylari tashkil etilganda ularning kengligi 2,4 m. dan kam bo‘lmasligi lozim.






MTT binolarida musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun zallar ko'zda tutilishi lozim.



Umumiy tipdagи MTT da musiqa mashg'ulotlari uchun zal maydoni mакtabgacha guruhdagi bitta o'rин hisobidan -  $2\text{ m}^2$  dan kam bo'limgan, gimnastika mashg'ulotlari uchun zal maydoni –  $3\text{ m}^2$  dan kam bo'limgan, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun universal zal – bir o'ringa  $4\text{ m}^2$  dan kam bo'limgan o'lchamda qabul qilinishi lozim.



Suzish basseynlarini loyihalashtirishda ularni qurishga va foydalanishga, suzish basseynlari suvi sifatiga va sifat nazoratiga amaldagi SanPiNlar bilan belgilangan talablarga rioya qilinishi lozim.



- **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar:**
- Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarni sog‘lom ovqatlanishi uchun qo‘yiladigan talablar, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda hisobga olingan, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar”- SanPiN № 0016-21 (Sanitar norma va qoidalar) ga asosan amalga oshiriladi.



- Taom pishiriladigan qozonlar ovqat tarqatib bo‘lganidan so‘ng ovqat qoldiqlaridan tozalanadi va harorati  $40^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lmasan issiq suvda idish yuvish vositalari solib yuviladi. So‘ngra quritilib yuqori qismi pastga qilib ag‘darilgan holatda panjaralarda turishi lozim. Yuvilgan toza oshxona idishlari poldan 0,5 metr balandlikda panjaralar (stelaj)da saqlanadi.
- Taxtakachlar va taxtadan tayyorlangan mayda oshxona anjomlari birinchi vannada yuvish vositasi qo‘shilgan harorati  $50^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan issiq suvda yuviladi. Keyin harorati  $65^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lmasan issiq suvli ikkinchi vannada chayib olinadi va quritiladi.
- Iste’mol idishlari ovqat qoldiqlaridan mexanik usulda tozalanganidan so‘ng yuvish vositasi solingan, harorati  $45^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lmasan suvda (birinchi vannada) yuviladi, so‘ngra harorati  $65^{\circ}\text{C}$  darajadan past bo‘lmasan issiq suvda chayiladi (ikkinchi vanna) va maxsus panjaralarda (stellajlar) quritiladi. Idishlarni zararsizlantirilishi (vositada ivitib qo‘yish) epidemiologik ko‘rsatmalar asosida amalga oshiriladi.



- Kartoshka va ildizli sabzavotlar quruq, qorong‘u xonalarda saqlanadi. Karam omborxona rastalarida, ko‘kat va mevalar saqlash idishlarida salqin joylarda harorati  $+12^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lgan holatda saqlanadi.
- Issiq taomlarni (suyuq taomlar, souslar, qaynoq ichimliklar, ikkinchi taomlar va garnirlar) harorati tarqatilish paytida  $+60\text{--}65^{\circ}\text{C}$  darajada, salatlar, ichimliklarni harorati  $+15^{\circ}\text{C}$  darajadan past bo‘lganligi lozim.
- Vitaminlar manbai bo‘lgan yaproqli sabzavotlar va ko‘katlar ishlatilishidan oldin 3 foizli sirka yoki 10 foizli osh tuzi eritmasida 10 daqiqa ushlab turiladi va oqar suvda chayiladi.
- Taom tayyorlash uchun faqat davlat standarti talablari muvofiq bo‘lgan yodlangan tuzdan foydalaniladi.



# Maktabgacha ta'lif muassasalariga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari

- Mashg'ulot o'tkazish joylari yong'in va portlash havfsizligi, ularni rejalashtirishda, tashkillashtirishda va olib borishda GOST 12.1.004-91 «Yong'in xavfsizligi. Umumiy talablari» va GOST 12.1.010-90 «Portlash xavfi umumiy talablari»ga va mazkur Qoidalarga muvofiq ta'minlanishi lozim.
- Dastlabki yong'inni o'chirish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi shart.
- Shamollatish tizimi yong'indan darak beruvchi signalizatsiya bilan birlashtirilgan bo'lishi kerak.
- Yong'in suv manbai yo'laklari, hamda yong'inni o'chirish vositalariga boradigan yo'laklar doimo bo'sh bo'lishi kerak.



- Hududiy yong'in xavfsizligi xizmati bilan kelishilgan yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqilishi va ko'rinaradigan joyga osib qo'yilishi lozim.
- Tarbiyachilar va bolalar bilan yong'in xavfsizligi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilishi va ularga yong'inning oldini olish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishi kerak.
- Ta'lif muassasasining barcha xonalarida, omborxonada va yordamchi binolarning ko'rinarli joylarida yong'in xavfsizligi xizmatining telefon raqamlari yozilgan eslatma yozuvlari bo'lishi kerak.
- Ta'lif muassasasi binolarining har bir qavatida yong'in sodir bo'lganida xodimlarni va moddiy boyliklarni qutqarish chizmasi o'rnatilishi shart. Chizmada xonalar, yo'laklar, birlamchi yong'in o'chirish vositalari, telefon joylashuvi, xodimlar va ta'lif oluvchilarning favqulodda holatda zaxira chiqish yo'llaridan harakat qilish yo'nalishlari ko'rsatilishi lozim.



## Binolarda quyidagilar taqiqlanadi:

- yerto'lada yonuvchi suyuqliklar, gaz sig'implari, portlash xavfi bo'lgan moddalarni saqlash;
- chordoqlarda, texnik qavatlarda, ventkameralarda asbob-uskunalarini saqlash;
- zaxira chiqish yo'llari devorlariga, shift va pollariga yengil yonuvchi materiallar bilan ishlov berish, bo'yash, shuningdek zinapoyalar va ular oldidagi xonalarga yonuvchi qurilish materiallaridan ishlov berish, yog'och panellar bilan bezash, turli qo'shimcha xizmat xonalarini qurish;
- xonalardagi elektr isitkich asboblari, kompyuter va yordamchi asbob-uskunalarini elektr tarmog'iga ulangan holda qoldirish;
- elektr asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishdan avval ularni qo'llash bo'yicha texnik yo'riqnomada keltirilgan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqmasdan ishlatish.



## Favqulotda vaziyatlardan ogohlantirish, ular sodir bo‘lganda harakat qilish usul va qoidalari. Evakuatsiya tadbirlari.

- O‘quv muassasalarida fuqaro muhofazasini tashkillash:
- Maktabgacha ta’lim muassasalarida fuqaro muhofazasini tashkillashda ularning xususiyati va texnik imkoniyatlari hisobga olinadi.
- Maktabgacha ta’lim muassalarining fuqaro muhofazasi boshlig‘i mudira xisoblanib, u o‘zining buyrug‘i bilan: fuqaro muhofazasining shtab boshlilig‘iga maktabgacha ta’lim muassalarining biror-bir shtatli ishchisini tayinlaydi. Evakuatsiya bo‘yicha o‘zining o‘rinbosarlarini – o‘quv-tarbiyaviy ishlari bo‘yicha, moddiy-texnik ta’minot bo‘yicha, xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlaridan birini tayinlaydi.
- Maktabgacha ta’lim muassalarida fuqaro muhofazasi rejasi ishlab chiqiladi va ijrochilarga - ishchilarga yetkaziladi.
- Maktabgacha ta’lim muassalarida fuqaro muhofazasi bo‘yicha barcha tadbirlar mudira (fuqaro muhofazasi boshlig‘i)ning buyrug‘i bilan shtatli ishchilar, hodimlar ishtirokida o’tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim ixtisosi, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarning soni hamda moddiy-o'quv bazasining mavjudligiga qarab ushbular tuzilishi mumkin:

- aloqa zvenosi (agar zarur bo'lsa);
- radiatsion va kimyoviy kuzatuv posti;
- qutqaruv guruhi;
- jamoat tartibini saqlash guruhi;
- yong'inga qarshi komanda;
- fuqaro muhofazasining yashirinish joylariga, panohgohlarga (agar ular o'quv muassasalarida mavjud bo'lsa) xizmat ko'rsatish zvenolari;
- sanitar posti.



## Alovida joylashtirish va evakuatsiya usullari ularni o'tkazish bo'yicha fuqaro muxofazasining tadbirlari.

- **Evakuatsiya tadbiri** deganda aholini shahardan shahar tashqarisiga alovida joylashtirish va evakuatsiya qilish tushuniladi. Ular rayon (ob'ekt) fuqaro muhofazasi rejasi va fuqaro muhofazasining boshlig'i ko'rsatmalari asosida tashkillanadi va o'tkaziladi.
- **Alovida bo'lib joylashtirish** deganda favqulotda hodisa sharoitida korxona va tashkilotlarda o'z ishini davom ettirayotgan ishchi va xizmatchilarni transport orqali yoki piyoda kuchli talofat ko'rish zonasida bo'lgan shahardan va shahar tashqarisiga yashash va dam olish uchun joylashtirish tushuniladi.
- **Evakuatsiya** deganda kuchli talofat bo'lishi kutilayotgan va sel olgan zonalarda bo'lgan ishchi va xizmatchilarni aholi punktlaridan, shahar va ob'ektlardan olib chiqish tushuniladi.



Piyoda tartibda olib chiqish, qonunga muvofiq, vayron bo‘lishi mumkin bo‘lgan zonalardan sutkalik 10 - 12 soat harakatlanish orqali olib chiqib ketish hisobida rejalashtiriladi.

Tartibli harakat va boshqarishni qulayligini ta’minlash maqsadida aholini 500 tadan 1000 tagacha odam bo‘lgan kolonnalar bilan olib chiqish tavsiya etiladi. Korxona rahbarlaridan kolonna boshlig‘ini, boshqarish va aloqa guruhi bilan piyodalar boshliqlarini tayinlash tavsiya etiladi.

Kolonnalar orasidagi masofa 500 m bo‘lishi kerak. Yo‘lda to‘xtab dam olishlar tashkillanadi: kichik - 1-1,5 soat harakatdan so‘ng (10–15 minut) va katta - kunning ikkinchi yarmida (1–2 soatga).

Oraliq evakuatsiya punktiga yetib kelgan aholi ro'yxatdan o'tadi, aholi punktlariga bo'linadi. Fuqaro muhofazasining mahalliy organlari va xalq deputatlari kengashi aholini ishga joylashishini tashkillaydi.



Evakuatsiya qilingan va joylashtirish kerak bo'lgan aholini joylash uchun dam olish uylari, sanatoriyalar, turistik va sport bazalari, oromgohlar hamda mahalliy aholining uylari, dala hovlilari boshqa turar joylar qo'llaniladi.



Joylashish rayonlari shahardan shunday masofada bo'lishi kerakki, shaharga ishga va orqaga shahar tashqarisiga qaytib kelish uchun 4–5 soatdan ortiq vaqt sarflanmasligi kerak.



Evakuatsiya tadbirlari tugagandan so'ng, shaharda faqat aholi umumiylisobining (sonining) 10–15% ini tashkil etadigan ishchi smenasi qolishi kerak.

**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!**